



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

**AFG‘ONISTONDA YUZ BERGAN FUQAROLAR URUSH VA SSSR QO‘SHINLARINING
MAMLAKATDAN OLIB CHIQLISHIDA “JENEVA MUZOKARALARI”NING ROLI:
TARIXIY TAHLIL
(XX ASR 80-YILLARI)**

Norqo‘chqarov Xushvaqt Eshnazarovich

Termiz davlat muhandislik va agrotekhnologiyalar universiteti, o‘qituvchi

Mamatraimov Komil Mamatmurod o‘g‘li

Termiz davlat muhandislik va agrotekhnologiyalar universiteti, o‘qituvchi

Annotatsiya

Ushbu maqolada XX asrning 80-yillarida Birlashgan Millatlar Tashkiloti tashabbusi bilan tashkil etilgan Jeneva muzokaralarining Afg‘onistonda yuz bergan fuqarolar urush va SSSR qo‘shinlarining mamlakatdan olib chiqilishidagi ta’siri ma’lum dalillar va tahlillar asosida ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Afg‘oniston, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Diego Kordoves, Jeneva muzokaralari, AQSh, SSSR, Babrak Karmal, Muhammad Najibullo, Sovet qo‘shinlari.

**РОЛЬ «ЖЕНЕВСКИХ ПЕРЕГОВОРОВ» В ГРАЖДАНСКОЙ ВОЙНЕ В АФГАНИСТАНЕ И
ВЫВОДЕ ВОЙСК СССР ИЗ СТРАНЫ: ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ
(80-Е ГОДЫ XX ВЕКА)**

Норкучкаров Хушваqt Эшназарович

Термезский государственный университет инженерии и агротехнологий, преподаватель

Маматраимов Комил Маматмuroд угли

Термезский государственный университет инженерии и агротехнологий, преподаватель

Аннотация

В данной статье, на основе определенных фактов и анализа, рассматривается влияние Женевских переговоров, инициированных Организацией Объединенных Наций в 1980-х годах, на гражданскую войну в Афганистане и вывод советских войск из страны.

Ключевые слова: Афганистан, Организация Объединенных Наций, Диего Кордовес, Женевские переговоры, США, СССР, Бабрак Кармаль, Мухаммад Наджибулла, советские войска.

**THE ROLE OF THE “GENEVA NEGOTIATIONS” IN THE AFGHAN CIVIL WAR AND THE
WITHDRAWAL OF SOVIET TROOPS FROM THE COUNTRY: A HISTORICAL ANALYSIS
(1980S)**

Norqo‘chqarov Xushvaqt Eshnazarovich

Termez State University of Engineering and Agrotechnologies, Lecturer

Mamatraimov Komil Mamatmurod o‘g‘li

Termez State University of Engineering and Agrotechnologies, Lecturer

Abstract

This article examines the impact of the Geneva talks, initiated by the United Nations in the 1980s, on the civil war in Afghanistan and the withdrawal of Soviet troops from the country, based on certain facts and analyses.

Keywords: Afghanistan, United Nations, Diego Cordovez, Geneva talks, USA, USSR, Babrak Karmal, Muhammad Najibullah, Soviet troops.

Afg‘oniston Islom Respublikasi Janubiy-G‘arbiy Osiyoning sharqiy qismida joylashgan mamlakat hisoblanadi. Afg‘oniston ko‘p millatli mamlakat hisoblanib, aholisining etnik tarkibini pushtunlar, tojiklar, o‘zbeklar, hazoriylar va boshqa millatlar tashkil etadi. Mamlakat maydonining 4/5 qismi tog‘liklardan iborat. Aholisining asosiy qismi chorvachilik va qishloq xo‘jaligi mashg‘ulotlari bilan shug‘ullanadi. Uning geografik joylashuvi ham bir jihatdan bu hududda yagona markaziy davlat vujudga kelgan davrdan boshlab to bugungi kungacha yuz berib kelayotgan yirik davlatlarning manfaatlari to‘qnashgan, tinimsiz urush-janjallar, qarama-qarshiliklar, nizolar va muammolar markazlaridan biriga aylanib qolishining asosiy sabablaridan hisoblanadi. Butun XIX asr davomida va XX asrning 20-yillarigacha bo‘lgan davr mobaynida ushbu mintaqa ingliz-rus raqobat maydoniga aylangan bo‘lsa, o‘tgan

asrning soʻnggi choragidan boshlab Afgʻonistonda yana nizolar va qarama-qarshiliklar qayta avj oldi. AQSH va SSSR oʻrtasidagi “sovuq urush” munosabatlariga tortildi. Sobiq Ittifoq prokommunistik tuzumni himoya qilish maqsadida Afgʻonistonga oʻz qoʻshinlarini olib kirdi. Bu esa mamlakatda yetilib turgan fuqarolar urushining boshlanib ketishiga olib keldi. Natijada mamlakatdagi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy tizim izdan chiqdi. Afgʻonistondagi bu holat asoratlarning bugungi kunda ham saqlanib qolayotganligi jahon hamjamiyati tomonidan jiddiy muammo sifatida qaralmoqda hamda ushbu muammoning xalqaro tashkilotlar doirasida hal etilishini eng toʻgʻri qarorlardan deb qarashimiz mumkin. Oʻtgan asrning 80-yillarida ushbu muammoni hal etish maqsadida Birlashgan Millatlar Tashkiloti tashabbusi bilan “Jeneva muzokaralari” oʻtkazildi. Ushbu muzokaralar bir necha bosqichda va ancha uzoq yil boʻlib oʻtdi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya (Литература и методология / Materials and methods). Afgʻonistondagi vaziyatni yumshatish va afgʻon muammolarini hal etish uchun koʻpgina davlatlar Afgʻonistonga oʻz taʼsirlarini oʻtkazishga harakat qildilar. AQSH, Saudiya Arabistoni, Eron, Pokiston, Xitoy, Yaponiya, Yevropaning bir qancha davlatlari afgʻon muammolari, uning ichki va tashqi siyosatiga aralashishni davom ettirdilar. Afgʻon muammolarini hal etishga qaratilgan xalqaro muzokaralar BMT nazoratida amalga oshdi. Afgʻon muammolari bilan bogʻliq koʻplab adabiyotlar yaratilgan, maqolalar chop etilgan boʻlsa-da, aynan afgʻon muammolariga bagʻishlangan bir qancha adabiyotlar mavjud. Ushbu maqolada N.I. Kozerov, G.M. Korniyenko, V.F. Zayemskiy, M. Barry kabi bir qancha olim va mutaxassislarning tadqiqotlaridan foydalanildi. Shuningdek, ensiklopedik materiallar va internet manbalaridan ham foydalanildi. Ushbu maqolada shu kabi tadqiqotchilarning fikrlarini oʻzaro solishtirish orqali qiyosiy tahlil, tarixiylik, izchillik, xolislik kabi metodlardan foydalangan holda mavzu mohiyatini ochishga harakat qilindi.

Muhokama va natijalar (Обсуждение и результаты / Discussion and results). Afgʻonistonda siyosiy vaziyatni yaxshilash, fuqarolar urushini toʻxtatish masalalari hal etilishi uchun Jeneva konferensiyasi tashkil etilgan edi. Fuqarolar urushining bu davrida bir necha million xalq Afgʻoniston bilan chegaradosh boʻlgan mamlakatlarga, Rossiya va Yevropa mamlakatlariga ketishga majbur boʻldi. Bunday inqirozli vaziyatdan chiqish, fuqarolar urushini toʻxtatish, mamlakatda tinchlik va barqarorlikni taʼminlash, millat va elatlar oʻrtasida birlikka erishish, qolaversa, mujohidlar oʻrtasida kelishuvga erishish, Afgʻonistonda siyosiy barqarorlik oʻrnatish maqsadida ichki va tashqi, xalqaro kuchlar bir necha marta jiddiy harakat qildilar [1, B.12–13].

BMTning Bosh kotibi tomonidan Afgʻoniston ishlari boʻyicha tayinlangan favqulodda vakili Diego Kordoves 1982-yilda Pokiston va Eronda ikki davlat rahbarlari bilan uchrashib, keyin AQSH va SSSR vakillari bilan maslahatlashib, shuningdek, Afgʻoniston hukumati bilan kelishgan holda Afgʻoniston inqirozini hal etish uchun Jenevada muzokaralar oʻtkazishni taklif qildi. Bu xalqaro tashkilotlarning Afgʻoniston masalasini hal etish boʻyicha birinchi yirik muzokarasi boʻldi. Bunday vaziyatda muzokaralar qanday ish berishi hali nomaʼlum edi [2, B.73].

Jeneva muzokaralari 1982-yil 16-iyunda boshlandi. Muzokaralarda AQSH, SSSR, Pokiston va Kobul hukumati vakillari ishtirok etdilar. Bu muzokaralar olti yil davom etdi [3, B.94].

1985-yilgi BMT Bosh Assambleyasida Afgʻonistondagi inson huquqlarining himoyasi masalasi alohida muhokama qilindi. Ketma-ket tasdiqlangan hujjatlar orasidagi birinchi bayonotda mamlakatda inson huquqlari boʻyicha Maxsus guruh tashkil etish masalasi belgilandi. 13-dekabrda Afgʻonistonda inson huquqlari va erkinligi uchun asos boʻluvchi №40/137-sonli qaror qabul qilindi. Unda Assambleya qabul qilgan inson huquqlari buzilishining oldini olish, shaxsiy huquq va erkinliklarga oʻzaro hurmat bilan munosabatda boʻlish, oʻz fikrini erkin bildira olish masalalari belgilandi. Unda, shuningdek, qishloq va qishloq xoʻjaligi tizimining qurolli harbiy operatsiyalar va bombardimonlar natijasida vayronaga aylangan qismlarini qayta tiklash hamda aholini oʻz yashash manzillariga qaytarish masalalari ham koʻrsatib oʻtilgan edi [4, B.13].

SSSR qoʻshinlarining Afgʻonistondagi “ikki hafta, nari borsa bir oyga choʻziladi” degan harakati juda uzoq choʻzilib ketdi va 80-yillarning oʻrtalariga kelib, Babrak Karmalning oʻrniga SSSRning harakatlarini qoʻllab-quvvatlaydigan, u zoʻrlab singdirishga, targʻib qilishga va oʻrnatishga harakat qilayotgan sotsializm tuzumini asrab qola oladigan nomzod qidirayotgan edi. Bunday nomzodni u Muhammad Najibullo siymosida koʻrdi va uni 1986-yil ADRning prezidenti etib tayinladi [5, B.21–24].

Jahon hamjamiyatining qarshiligiga qaramay, SSSR Afgʻonistondan oʻz qoʻshinlarini olib chiqishga harakat qilmadi. Bu esa xalqaro tashkilotlarning yanada faolroq boʻlishini talab qildi. Bu jarayonlarda Birlashgan Millatlar Tashkiloti koʻplab ishlarni olib bordi, reja va dasturlar ishlab chiqdi, qarorlar qabul qildi.

1987-yilgi shartnomaga muvofiq BMT Afgʻonistonga gumanitar yordam koʻrsatish harakatlarini kuchaytirdi. Afgʻoniston BMTning istiqbolli rivojlanish boʻyicha reytingida jahonda eng quyi oʻrinni egalladi va faqat urush natijasida rivojlanish va qayta tiklanish jarayonlarida juda koʻplab qiyinchiliklarga yechim topish kerak edi [6, B.179]. BMTning Oziq-ovqat va qishloq xoʻjaligini rivojlantirish tashkiloti 1979–1991-yillar oraligʻida Afgʻoniston qishloq xoʻjaligini rivojlantirishda 40 % gacha oʻsishga erishdi [7].

Nihoyat, 1988-yil 14-aprelda Jeneva yakunlovchi bitimlari imzolandi. Bitimning biriga AQSH va SSSR vakillari imzo chekishdi, ikkinchi bitimga Pokiston va Kobul vakillari imzo qoʻydilar. Bu bitimlarda qayd etilishicha, Afgʻonistondagi siyosiy holatni moʻtadillashtirish toʻrt bosqichda amalga oshirilishi nazarda tutilgan edi: birinchi bosqichda sovet qoʻshinlari Afgʻonistondan chiqib ketishi; ikkinchi bosqichda esa chet davlatlar aralashuviga yoʻl qoʻymaslik; uchinchi bosqichda qabul qilingan xalqaro tinchlik normalari amalga oshirilishi qayd etilgan; toʻrtinchi bosqich afgʻon qochoqlari masalasi hal etilishini nazarda tutgan edi [8, B.186–189]. Jeneva muzokarasida Afgʻonistonning kelajagi, siyosiy tuzilishi, tarkibi, mamlakatni inqirozga tortgan turli siyosiy kuchlarning oʻzaro munosabatlari haqida aniq bir fikr aytilmadi. Chunki sovet qoʻshinlari mamlakatdan chiqib ketgandan soʻng mamlakatdagi bir-birlariga qarshi holatda turgan kuchlar tashqi kuchlarning aralashuvisiz oʻz muammolarini oʻzlari hal qilishlari lozim edi. Ammo bunday boʻlmadi. Buning ustiga Jeneva muzokaralaridan soʻng Afgʻoniston oʻz holiga tashlab qoʻyildi va unga fuqarolar urushining oldini olish uchun amaliy yordam koʻrsatilmadi. Jahon hamjamiyati ham Afgʻoniston inqirozini bartaraf etish uchun yetarlicha harakat qilmadi [9, B.111–114].

Xulosa (Заклучение / Conclusion). Jeneva bitimlarining amaliy tomonlaridan biri shundaki, SSSR oʻz qoʻshinlarini Afgʻonistondan olib chiqishga majbur boʻldi. SSSRning Afgʻonistondagi harbiy harakatlari natija bermadi, uning siyosiy avanturasi oʻzini oqlamadi. Afgʻoniston muammosi oʻz-oʻzidan AQSHni ham qiziqtirib qoʻydi. Uning bu mintaqadagi asosiy nuqtasi Iroq va Eron boʻlishiga qaramay, Afgʻoniston ham uni oʻziga tortgan edi [10, B.40–42].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Козырев Н.И. Женевские соглашения 1988 г. и афганское урегулирование. — М., 2000. — С. 12–13.
2. Корниенко Г.М. Как принимались решения о вводе советских войск в Афганистан и их выводе // Новая и новейшая история. — М., 1993. — № 3. — С. 73.
3. Козырев Н.И. Роль дипломатии в разблокировании «афганского узла»: от «Женевы-88» до наших дней. — М., 2009. — С. 64.
4. Заемский В.Ф. Реформы ООН и миротворчество: автореф. дис. ... д-ра полит. наук. — М., 2009. — С. 13.
5. Сафрончук В.С. Афганистан при Б. Кармале и Нажибулле // Азия и Африка сегодня. — М., 1996. — № 7. — С. 21–24.
6. Barry M. A History of Modern Afghanistan. — Cambridge: Cambridge University Press, 2006. — P. 179.
7. Резолюция СБ ООН по Афганистану (миссия «Решительная поддержка»), 2014 г. // Сайт ООН. — URL: ООН
8. Козырев Н.И. Женевские соглашения 1988 г. и афганское урегулирование. — М., 2000. — С. 186–189.
9. Козырев Н.И. Роль дипломатии в разблокировании «афганского узла»: от «Женевы-88» до наших дней. — М., 2009. — С. 111–114.